



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## “BOBURNOMA” ASARINING L.Z. BUDAGOV QIYOSIY LUG‘ATIDAGI MANBASHUNOSLIK AHAMIYATI

### THE SOURCE-STUDY SIGNIFICANCE OF BOBURNOMA IN L. Z. BUDAGOV’S COMPARATIVE DICTIONARY

**Tuxtasinova Mahliyoxon Shavkatjon qizi**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: [mahliyo.shavkatjonovna@gmail.com](mailto:mahliyo.shavkatjonovna@gmail.com)

ORCID ID: 0000-0002-6849-0603

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./DHTP2044](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./DHTP2044)

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada XIX asr turkologiyasi tarixida muhim o‘rin tutuvchi Lazar Budagov tomonidan tuzilgan ikki jildlik “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘atida “Boburnoma” asaridan foydalanish masalasi manbashunoslik va tarixiy-lug‘aviy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Boburnoma”ning XV–XVI asr chig‘atoy tilining real nutqiy holatini aks ettiruvchi muhim yozma manba sifatidagi ahamiyati ochib beriladi hamda asarda qayd etilgan leksik birliklarning Budagov lug‘atida qay tarzda aks etgani aniqlanadi.*

*Maqolada “Boburnoma” materiallari asosida lug‘atda izohlangan so‘zlarning semantik aniqligi, ularning tarixiy qo‘llanish doirasi va etimologik qatlamlarini belgilashdagi roli ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, “Boburnoma”dan keltirilgan misollarning eski o‘zbek (chig‘atoy) tili leksikasining tarixiy taraqqiyotini yoritish, leksik birliklarning funksional va ijtimoiy-siyosiy mazmunini aniqlashdagi manbashunoslik ahamiyati asoslanadi. Tadqiqot natijalari Budagov lug‘atining tarixiy yozma manbalarga tayangan holda yaratilgan ilmiy asar ekanini tasdiqlaydi hamda chig‘atoy tilini o‘rganishda Boburnomaning ishonchli lingvistik manba sifatidagi mavqeini yanada aniqlashtiradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Budagovning qiyosiy lug‘ati, Boburnoma, chig‘atoy tili, tarixiy leksikologiya, qiyosiy lug‘atshunoslik, turkiy tillar.*

**Annatation.** *This article provides a source-oriented and historical-lexicographic analysis of the use of “Boburnoma” in the two-volume “Comparative Dictionary of Turkic–Tatar Dialects” compiled by Lazar Budagov, a prominent figure in the history of nineteenth-century Turkology. The study highlights the significance of “Boburnoma” as an important written source reflecting the real linguistic usage of the Chagatai language in the fifteenth and sixteenth centuries and examines how the lexical units recorded in the work are represented in Budagov’s dictionary.*

*Based on the material drawn from “Boburnoma”, the article demonstrates the role of contextual examples in ensuring the semantic precision of the*



*dictionary entries, as well as in determining their historical scope of usage and etymological layers. In addition, the source-study value of the examples cited from “Boburnoma” is substantiated with regard to elucidating the historical development of Old Uzbek (Chagatai) vocabulary and to identifying the functional and socio-political meanings of lexical units. The findings confirm that Budagov’s dictionary is a scholarly work compiled on the basis of historical written sources and further clarify the status of “Boburnoma” as a reliable linguistic source for the study of the Chagatai language.*

**Keywords:** *Budagov’s comparative dictionary, Boburnoma, Chagatai language, historical lexicology, comparative lexicography, Turkic languages.*

XIX asr turkologiyasida qiyosiy-tarixiy lug‘atshunoslikning shakllanishi yozma yodgorliklarga tayangan holda amalga oshirildi. Bu jarayonda tarixiy-adabiy manbalar, xususan, o‘rta asr turkiy adabiyoti namunalari alohida ahamiyat kasb etdi. Shunday manbalardan biri – Zahiriddin Muhammad Baburning “Boburnoma” asaridir. Mazkur asar nafaqat tarixiy-memuar janrining nodir namunasi, balki chig‘atoy tilining leksik, semantik va stilistik imkoniyatlarini aks ettiruvchi muhim til yodgorligidir.

Lug‘atga ko‘plab sharqiy xalqlar tilidagi faol so‘zlar kiritilgan. Shu bois ularni qiyoslash jarayonida xalqlarning yozma yodgorliklari, turkiy tillardagi so‘zlashuv va tarjima lug‘atlari hamda adabiy merosiga oid asarlar matnlaridan foydalanilgan.

L. Z. Budagov tomonidan tuzilgan qiyosiy lug‘atda “Boburnoma”dan foydalanilishi tasodifiy emas. Bu holat Budagovning lug‘at tuzish metodologiyasida tarixiy manbalarga bergan katta e‘tiborini ko‘rsatadi.

Budagov lug‘atining manbashunoslik asoslariga e‘tibor qaratilsa, lug‘at turkiy tillar va shevalarning boy leksik qatlamini qamrab olgan bo‘lib, unda qadimgi turkiy, eski o‘zbek (chig‘atoy), tatar, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur va boshqa turkiy tillar materiallari qiyosiy asosda berilgan. Lug‘atning muhim jihati shundaki, unda so‘zlarning ma‘nosi faqat zamonaviy holat bilan cheklanmay, tarixiy manbalar asosida izohlanadi.

Ana shu tarixiy manbalar orasida “Boburnoma” alohida o‘rin egallaydi. Budagov ushbu asardan keltirilgan misollar orqali ayrim leksik birliklarning qadimgi va o‘rta asrlar davridagi ishlatilish xususiyatlarini aniqlaydi.

Muallif lug‘atda Boburning N. Ilminskiy tomonidan 1857-yilda Qozonda nashr etilgan “**BABER – NAMEH diagataice Ad fidem codicis petropolitiani**” asarida **chig‘atoy lahjasidagi yozuvlaridan** muallif arabcha, qozoncha (qozon-tatar) va shu kabi leksemalarni yoritishda foydalangan. 1857-yilgi Ilminskiy nashri Qozon arxivlarida saqlangan qo‘lyozmalar asosida tayyorlangan bo‘lib, sharqshunoslik ilmi uchun muhim va asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

“Boburnoma”ning lug‘aviy manba sifatidagi ahamiyati shundaki, memuar asar leksik jihatdan nihoyatda rang-barang bo‘lib, unda:

- harbiy va siyosiy terminlar,
- geografik nomlar,
- o‘simlik va hayvonot olamiga oid atamalar,
- maishiy va ijtimoiy hayotga doir birliklar keng qo‘llangan.

Budagov aynan shu qatlamlardan faol foydalanadi. Masalan, ayrim harbiy terminlar yoki tabiat hodisalarini ifodalovchi so‘zlar “Boburnoma” misollari bilan tasdiqlanib, ularning tarixiy semantikasi ochib beriladi. Bu esa lug‘atda berilgan so‘zlarning faqat nazariy emas, balki real matn asosida mustahkamlanganini ko‘rsatadi.

### **Budagov lug‘atida “Boburnoma”dan keltirilgan misollarning funksiyasi**

Budagov “Boburnoma”dan foydalangan holda bir necha muhim vazifani bajaradi:

1. **Leksik birlikning tarixiyligini tasdiqlash** – so‘zning ma’lum davrda faol bo‘lganini ko‘rsatish;
2. **Semantik aniqlik kiritish** – ko‘p ma’noli so‘zlarning kontekstual ma’nosini ochish;
3. **Qiyosiy tahlilni kuchaytirish** – chig‘atoy tilidagi birliklarni boshqa turkiy tillar bilan solishtirish.

Ushbu vazifalar lug‘at materialining tasodifiy emas, balki aniq ilmiy tamoyillar asosida tanlanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, tarixiy matndan keltirilgan iqtiboslar leksik birliklarning semantik doirasini aniqlashda ishonchli dalil sifatida xizmat qiladi. Bu holat Budagovning lug‘at tuzishda kontekstual tahlilga tayanganini va so‘z ma’nosini real nutqiy muhitda ochishga intilganini ko‘rsatadi.

Bunday yondashuv XIX asr turkologiyasida qiyosiy lug‘atshunoslikning ilmiy darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Natijada “Boburnoma” Budagov lug‘atida oddiy misol manbai emas, balki ilmiy dalil vazifasini bajaradi.

Chig‘atoy tili va tarixiy leksikologiya nuqtayi nazaridan “Boburnoma” tili chig‘atoy adabiy tilining yetuk bosqichini aks ettiradi. Asarda adabiy til unsurlari bilan bir qatorda og‘zaki nutqqa xos birliklarning ham uchrashi tilning funksional qamrovini yanada kengaytiradi. Budagov ushbu til qatlamini lug‘atga kiritish orqali chig‘atoy tilining umumturkiy leksik tizimdagi o‘rnini belgilashga erishadi. Bu jarayonda “Boburnoma” materiallari chig‘atoy tilining tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlashda muhim mezon vazifasini bajaradi. Natijada chig‘atoy tili boshqa turkiy tillar bilan qiyosda o‘rganilib, ularning umumiy va farqli jihatlari yanada ravshanlashadi. Bu esa hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarixiy ildizlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tarixiy leksik birliklarning zamonaviy o‘zbek tilidagi davomiyligi masalasini yoritishda “Boburnoma” va Budagov lug‘ati materiallari muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur masala L.Z. Budagov lug‘atining manbaviy asoslarini maxsus tadqiq etgan tadqiqotlarda ham yoritilgan. Xususan, Budagov lug‘atida eski

o'zbek (chig'atoy) tiliga oid leksik birliklar izohlanishida tarixiy yozma manbalardan, jumladan, badiiy-adabiy yodgorliklardan ashyoviy material sifatida keng foydalanilgani qayd etiladi [Tuxtasinova, 2025]. Bu yondashuv lug'atda keltirilgan so'zlarning semantik aniqligini ta'minlash hamda ularning tarixiy qo'llanish doirasini belgilashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. “Boburnoma” XV–XVI asr chig'atoy tilining real nutqiy holatini aks ettiruvchi noyob yozma manba bo'lib, undagi leksik birliklar Lazar Budagov tomonidan tuzilgan qiyosiy lug'atda ko'plab so'zlarning semantik aniqligi va tarixiy qo'llanishini tasdiqlovchi dalil sifatida keng foydalanilgan.

Arab so'z boyligiga mansub ارتفاع “ko'tarmoq, ko'tarilmoq, ko'tarilish, balandlik (daraja)”;

ارتفاع ایتمك *irtifā etmek* - “ko'tarmoq, yuksaltirmoq”;

ارتفاع محصول *irtifā māhsül* – “(non mahsulotlarini) yig'ishtirish”;

ارتفاع فلك *fālāk irtifā* – “osmon kabi baland” [Будагов, 1869:25] kabi ma'nolarni anglatuvchi leksemani yoritishda L.Budagov “BABER – NAMEH” (“Boburnoma”)ning 434-sahifasidan parcha keltirgan [Ilminski, 1857:434]

چندیریدا جدی نینک ارتفاعی بیکر مه درجه دور .

Asarning 1960-yilda nashr qilingan variantida hijriy to'qqiz yuz o'ttiz to'rtinchi (milodiy 1527) yil voqealari bayoni 407-sahifasida berilayotganiga guvoh bo'lamiz: “Chandiriyda judayniñ *irtifāi* yigirmä beš darajadur”, ya'ni Chandiriy shimoliy kenglik (ko'tarilish)ning yigirma besh darajasida joylashgan (yotadi) [Заҳириддин Муҳаммад Бобир, 1960:407].

Qozon tilida mavjud bo'lgan تَوَلِّك *tavlik*, ya'ni “kun (kun va tun), bir kun: to'liq”;

تولکای *tolgay* - “kunlik”,

تولک اوج یل *üç yıl tolik* - “uch yil to'liq” [Будагов, 1869:405] leksemasi va uning qo'llanilish holatini keltirar ekan, muallif “Boburnoma”dan leksemaning ikki o'rinda turlicha ma'noda qo'llanganini ta'kidlaydi:

شوکون تولوک - *šü kün tolük* – *shu kun to'liq*,

ایل اشلیق تولوکینی تمام کوتاریب ایدیلار *el āšliq tolükini tamām kotārib yedilar* – *qo'shin kunlik oziq-ovqatni yakson qildi (iste'mol qilib, yeb tugatdi)* [Ilminski, 1857:40]. “Boburnoma”da hind xalqi, o'lkasi hamda flora-faunasiga ta'rif mavjudligi tabiiy bo'lgani holda L.Budagov ham hindcha so'zlar izohida asardan foydalanadi. *инд*. belgi (pometa)si bilan beriluvchi hindcha *أنبلی* *ānbāli* leksemasi “hind tamarindi” [Будагов, 1869:98] bo'lib, asarda tubandagicha izohlanadi: *hurmoi hindi* – “hind hurmosi deb ataladi; qalin mayda bargli baland daraxt, yovvoyisi ham uchraydi.”<sup>2</sup> Bu kabi misollar lug'atda ko'plab uchraydi.

Chig'atoycha *توبولغا* *tubulya* [Будагов, 1869:384] leksemasi tatar tiliga mansub *تابولغه* *tabulya* [Будагов, 1869:328] leksemasiga ishora holatida berilgan. Tatarcha *تابولغه*, *تابولغه*, *تابولغی*, *tübülyi*, *tabulqa*, *tabulya*, leksemasiga doir lug'at

<sup>2</sup> Ilminski N. *BABER – NAMEH* diagataice Ad fidem codicis petropolitani. – Cazani. MDCCCLVII (1857). – B. 367.

maqolasiga nazar solinsa, uning chig'atoycha ekvivalenti تابولغو ، تابلغا *täbälğa*, *täbülyu* keltirilgan va “kichik daraxt (qalinligi barmoqday) qizil va chiroyli tanasidan tayoq, xivchin, yoy o'qi va qushlar uchun qafas tayyorlanadi; uning shoxlaridan otlarga peshob haydash uchun berishgan. Bobur bu daraxtni noyob hisoblab, uni faqat Farg'ona viloyatida o'sishini ta'kidlagan; Rossiyaning sharqiy guberniyalarida juda ko'p uchraydi va *tavalojnik* deb ataladi”, tarzida izoh berilgan.

“Qo'shinning ilg'or qismi, ortidan boruvchi qism”ni ifodalovchi chig'atoycha leksema tadqiq etilayotgan asarda هُرُوْل ، هَرَاوْل ، ايراول *iravül*, *härävül*, *hürüvül* shakli harbiy termin bilan ifodalangani qayd etilgan [Будагов, 1869:185]. ТНТЛда Н.Дадabayev “qo'shinning ilg'or qismi, avang'or”ni ifodalovchi *hiravul* termini mo'g'ulchadan tilimizga o'zlashganini qayd etib, “Boburnoma”dan misol keltiradi: O'sh sari muxoliflarning ustiga barang'ar, juvang'ar va g'o'l va *hiravul* va otlıq-yayoqni yasab, yasol bila-o'q mutavajjih bo'lduk [Захириддин Мухаммад Бобур, 1960:125].

Masalan, يِل – el leksemasi “Boburnoma”da ijtimoiy-siyosiy birlik, ya'ni xalq, aholi ma'nosida qo'llanadi:

“... ال و يورت حالى نى سوراب ...” – *el va yurt hālını sorab* [Захириддин Мухаммад Бобур, 1960: 147].

Mazkur misolda *el* so'zi muayyan hududda yashovchi aholi, xalq tushunchasini ifodalab, siyosiy-iqtisodiy holat bilan uzviy bog'langan holda ishlatilgan. Budagov lug'atida ushbu birlik «народ, племя, общество» – “xalq, qabila, jamiyat” tarzida izohlanib, uning turkiy tillardagi umumiy ijtimoiy mazmuni alohida ta'kidlanadi [Будагов, 1869:213].

“Boburnoma”da يورت – *yurt* leksemasi siyosiy-hududiy birlik, ya'ni muayyan davlat yoki mulk ma'nosida qo'llanadi:

“... يورتغە كىلدىك ...” – *yurtga keldik* [Захириддин Мухаммад Бобур, 1960:233].

Ushbu kontekstda *yurt* ma'lum bir hukmdor tasarrufidagi hududni anglatib, siyosiy mazmun kasb etadi. Budagov lug'atida mazkur birlik «страна, место, родина» – “mamlakat, joy, vatan” tarzida izohlanib, uning hududiy va ijtimoiy mazmuni birgalikda ochib beriladi [Будагов, 1869:18].

Shuningdek, “Boburnoma” matnida قوشون – *qošun* leksemasi harbiy termin sifatida faol qo'llanadi:

“... قوشون نى تارتىب ، يولغا چىققدوق ...” – *qošun ni tartib, yōlğa čiqduq* [Захириддин Мухаммад Бобур, 1960:312]. Bu o'rinda *qo'shun* so'zi uyushgan harbiy kuch ma'nosida kelib, Bobur davri harbiy-siyosiy leksikasining muhim unsurlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Budagov lug'atida mazkur birlik «войско, армия, военное соединение» – “qo'shin, armiya, harbiy birlashma” shaklida izohlanib, uning qadimgi va o'rta asr turkiy tillaridagi umumiy semantik qamrovi ko'rsatiladi [Будагов, 1871:89].

Yana bir misol sifatida **يار** – *yor* leksemasini keltirish mumkin. “Boburnoma”da bu birlik kontekstga qarab ham “do‘st, hamroh”, ham “yaqin kishi” ma‘nolarida qo‘llanadi:

“... منڭ يارلريم بيله مشورت قلدوق ...” – *meniñ yārlārim bilä mušvarat qılduq* [Захириддин Муҳаммад Бобур, 1960:178]. Budagov lug‘atida esa *yor* so‘zi «друг, товарищ, помощник» – “do‘st, o‘rtoq, yordamchi” tarzida sharhlanib, uning shaxslararo munosabatni ifodalovchi qadimiy leksik birlik ekanligi qayd etiladi (Будагов, 1871:341).

**بيک** – *bek* leksemasi “Boburnoma”da ijtimoiy-siyosiy lavozim nomi sifatida qo‘llanadi:

“... بيک نی ييرتب ...” – *bekni yuborib* [Ilminski, 1960:201].

Bu o‘rinda *bek* ma‘lum hudud yoki harbiy bo‘linma boshlig‘i ma‘nosida kelgan. Budagov lug‘atida esa mazkur birlik «князь, начальник, владетель» – “knyaz, boshliq, hokim” tarzida izohlanib, uning tarixiy-boshqaruv funksiyasi ko‘rsatiladi [Будагов, 1869:256].

“Boburnoma” XV–XVI asr chig‘atoy tilining real nutqiy holatini aks ettiruvchi muhim yozma manba bo‘lib, undagi leksik birliklar Lazar Budagov tomonidan tuzilgan “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий”da ko‘plab so‘zlarning tarixiy va semantik izohini asoslashda dalil sifatida qo‘llanadi. Budagov mazkur asardan foydalangan holda chig‘atoy tilidagi birliklarning umumturkiy leksik tizimdagi o‘rnini aniqlashga intilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” Lazar Budagov tomonidan tuzilgan “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘atida eng muhim tarixiy-lug‘aviy manbalardan biri sifatida alohida o‘rin egallaydi. Asarning XV–XVI asr chig‘atoy tilining real nutqiy holatini aks ettirishi Budagovga leksik birliklarning nafaqat lug‘aviy ma‘nosini, balki ularning tarixiy qo‘llanish doirasi, semantik rivoji va funksional yuklamasini aniq matn asosida yoritish imkonini bergan.

“Boburnoma” dan keltirilgan misollar Budagov lug‘atida qayd etilgan ko‘plab birliklarning tarixiy qatlamga mansubligini tasdiqlovchi ishonchli manba vazifasini bajaradi. Xususan, ijtimoiy-siyosiy, harbiy-boshqaruv va hududiy terminlarning real matndagi qo‘llanishi ularning umumturkiy leksik tizimdagi o‘rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu holat Budagovning lug‘at tuzish jarayonida tasodifiy misollarga emas, balki yozma manbalarga tayangan holda ilmiy asoslangan yondashuvni qo‘llaganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “Boburnoma” materiallarining jalb etilishi Budagov lug‘atida leksik birliklarning semantik aniqligini ta‘minlash bilan bir qatorda, ularning etimologik talqinini ham mustahkamlaydi. Asarda qayd etilgan so‘zlar kontekstual muhitda tahlil qilinib, ularning dastlabki ma‘nolari, keyingi semantik kengayish yoki torayish jarayonlari aniqlashtirilgan. Bu esa lug‘atning faqat qiyosiy emas, balki tarixiy-etimologik ahamiyatini ham oshiradi.



Umuman olganda, Budagovning “Boburnoma”ga tayangan holda olib borgan ilmiy ishlari XIX asr turkologiyasida manbashunoslik, tarixiy leksikologiya va qiyosiy lug‘atshunoslikning yuksak namunasi sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv keyingi davr turkiyshunoslik tadqiqotlari, xususan, chig‘atoy tili va hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarixiy asoslarini o‘rganishda muhim metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Будагов Л.З. *Сравнительный словарь турецко-татарских наречий*. I–II. – СПб., 1869–1871. – 829; 419 б.
2. Захириддин Мухаммад Бобур. *Бобурнома*. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960.
3. Ilminski N. *BABER – NAMEH diagataice Ad fidem codicis petropolitiani*. – Cazani, MDCCCLVII (1857). – 344 б.
4. Раҳматуллаев Ш. *Ўзбек тилининг этимологик лугати (туркий сўзлар)*. – Тошкент: Университет, 2000. – 599 б.
5. Clauson G. *An Etymological Dictationary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. – Oxford, 1972. – 342 p.
6. Tuxtasinova M. “L.Z. Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘atida eski o‘zbekcha qatlamning izohlanish tamoyillari”. – Toshkent: Noble Print, 2025. – 296 b.